



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



AUEZOV
UNIVERSITY
1943



O'ZBEKISTON
FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI



RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

Chirchiq, 2025-yil 25-aprel

HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN A DIGITAL SOCIETY: OPPORTUNITIES AND PROSPECTS INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

Chirchik, April 25, 2025

РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ: ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО- ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

Чирчик, 25 апреля 2025 г.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya TASHKILIY QO'MITASI

Rais: G.I.Muxamedov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

B.X. Eshchanov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

S.B. Qorayev – Yoshlar masalalari va ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor

D.B. Axmadjanov – O'quv ishlari bo'yicha prorektor

O.A. Ortiqov – Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor

S.X. Gayupova – Ta'lif sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i

F.A. Ikramov – Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi boshlig'i

R.A. Ikramov – Gumanitar fanlar fakulteti decani

G.G'. G'affarova – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lumi kafedrasi mudiri

Tashkiliy qo'mitaning ishchi guruhi:

N.A. Nazarov – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lumi kafedrasi professori

M.X. Borotov – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lumi kafedrasi professori

Sh.X. Tog'ayev – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lumi kafedrasi dotsenti

B.M.Qandov – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lumi kafedrasi dotsenti

G.S. Raxmonva – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lumi kafedrasi dotsent v.b.,

F.A Ibroximov – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lumi kafedrasi katta o'qituvchisi

A.A. Yo'ldoshev – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lumi kafedrasi o'qituvchisi

O.T. Berkinov – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lumi kafedrasi o'qituvchisi

D.A. Norboyeva – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lumi kafedrasi magistranti



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O‘quvchilarda og‘zaki bog‘lanishli nutqni rivojlanirishdagi muhim tamoyillardan biri sifatida lug‘at bilan ishlar muhim jihat ekanligi isbotlangan. Lug‘at ustidagi ishlar darsning turli bosqichida amalga oshiriladi. O‘quvchilar bilan badiiy asar tahlili qilish jarayonida o‘z-o‘zidan iste’molda, og‘zaki nutqda foydalanishiga ko‘ra faol va nofaol so‘zlar tarkibi shakllanadi. Bu ham lug‘at bilan ishslashning alohida jihatlarida biridir.

Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. E.Xudoyberdiev. Adabiyotshunoslikka kirish. T.,1995
2. Mir Qosimov M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari -Toshkent, Fan -1995
3. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi -Toshkent, Yangi asr avlod 2006
4. <https://cyberleninka.ru/>
5. <https://arxiv.uz/>

MAKTABGACHA TA’LIMDA O’QUV-TARBIYVIY FAOLIYATNI INTEGRATSİYASINING O’ZIGA XOSLIGI

Ilesova Lazzat Asan qizi

Maktabgacha ta’lim fakulteti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

ilesovalazzat102@gmail.com

Yunusova Mohichehra

Maktabgacha ta’lim fakulteti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdaggi bolalar o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini integratsiyalashning o‘ziga xosligi va uning ta’lim sifatidagi samarali jihatlari ifodalangan.Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojantiruvchi markazlarning faoliyati haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya,faoliyat, kreativ yondashuv,tarbiya,uzviylik, bog‘liqlik,mashg‘ulot.

Аннотация. В данной статье отражена специфика интеграции учебно-воспитательной деятельности дошкольников и ее эффективные аспекты в качестве образования. Затронута деятельность развивающих центров в дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: интеграция, активность,творческий подход, воспитание, преемственность, взаимосвязанность, обучение.

Abstract. In this article, the specificity of integration of educational activities of preschool children and its effective aspects in the quality of education are expressed. The activities of development centers in the preschool educational organization are discussed.

Keywords: integration, activity, creative approach, upbringing, continuity, attachment, training.

Yurtimizda so‘nggi yillarda ta’limni har bir turlarida isloxtatlar amalga oshirib borilmoqda. Shu o‘rinda maktabgacha ta’lim tashkilotida ham xalqaro tajribalarga tayangan holda bolalar mактаб ta’limiga sifatli tayyorlash bugangi kunning eng muhim masalalaridan biri bo’lib kelmoqda. Bu albatta shu soha mutaxassislaridan kreativ yondashishni muntazam o‘z ustilarida ishlab, izlanishni talab qiladi. Jamiyat talablarini qondirish hamda bilimli, malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni maktabgacha ta’lim tizimidan boshlash muhim omildir. O‘quv faoliyati qayerda tashkil etilmasin, uning ishtirokchilari ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan reja asosida ish olib borishi talab etiladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta’limda integratsiyaning zaruriyati muhim hisoblanadi. Chunki jamiyatimizga yuqori darajada bilim va malakaga ega bo‘lgan puxta tayyorgarlik ko‘rgan mutaxassislar juda zarur hisoblanadi. Mazkur ehtiyojni qondirish maktabgacha ta’limdan boshlash dolzarb hisoblanib, boshlang‘ich ta’lim mazmuni bilan uzviy bog‘lanishini talab etadi. Zamonaviy maktabgacha ta’lim-tarbiya mazmuni bolalar sog‘ligini saqlash va mustahkamlashga, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirish hamda ta’lim jarayonini bolaning asosiy faoliyati bo‘lgan o‘yin asosida tashkil etishga qaratilishi kerak. Mazkur jarayon integratsion yondashuv asosida bajariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarori ilovasining 4-bandiga ko‘ra “Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim o‘quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta’minlash” vazifasi belgilangan[1].

Integratsion yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda boshqariluvchi obyektga bir necha yondashuvlar (vaziyatli, tizimli, innovatsion)ni birgalikda qo‘llashdir. Integratsiya pedagogning ijod qilishiga, o‘zini namoyon qilishi, qobiliyatini ko‘rsatishga imkoniyat beradi. Integratsion mashg‘ulotlar an’anaviy mashg‘ulotdan tubdan farq qiladi. An’anaviy mashg‘ulotda faqat mavzu doirasida bir yo‘nalishda bilim beriladi. Integratsion mashg‘ulotlarda o‘quv materiali uyg‘unlashgan, mujassamlashgan va egiluvchanlikdan iborat bo‘ladi. U jarayonni tashkil etishda turlicha usullar bilan alohida qismlarni bayon etishni talab qiladi.

Integratsion mashg‘ulotning asosiy xususiyati sintez qilish bilan bog‘liq bo‘lib, qator didaktik imkoniyatlarga egadir:

- o‘rgatiladigan o‘quv materiali mazmuni, o‘qitishning nazariy va amaliy bog‘liqligi tamoyilidan foydalanishning ustuvorligi;
- mashg‘ulotlar o‘rtasidagi o‘zaro davriy bog‘lanishga tayanish;

- binar yondashuv, ya’ni ikki yoki undan ko‘proq pedagoglar faoliyati (yordamchi tarbiyachi, musiqa rahbari) ni tashkil etishga yo‘nalganligi [2].

Integratsion mashg‘ulot pedagogik imkoniyatlarni namoyon etadi, turli faoliyatlarda tarbiyalanuvchilarda uchraydigan charchoq, zerikish va zo‘riqishlarni bartaraf qiladi, bilishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, xayol, diqqat, tafakkur, nutq va xotirani rivojlantiradi. Mashg‘ulotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik vaqtdan unumli foydalanishga imkon yaratadi, ya’ni xorijiy til, tasviriy san’at, musiqani o‘zlashtiradilar, tarbiyalanuvchilarni rivojlantiruvchi faoliyati shuningdek, amaliy yo‘naltirilgan qo‘sishma mashg‘ulotlar(oilada, mahallada, obektlarda, to‘garaklarda)ni ham o‘tishga sharoit tug‘iladi. Ta’limiy rivojlantirishda maktabgacha ta’lim kontseptsiyasiga muvofiq pedagog L.S.Vigotskiyning quyidagi nazariyasiga tayanijadi "Har qanday faoliyat turining rivojlanishi quyidagicha bo‘ladi: avval kattalar bilan hamkorlikdagi, so‘ng tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat amalga oshiriladi va nihoyat bolaning mustaqil faoliyati amalga oshiriladi" degan fikrlari rivojlantiruvchi markazlar faoliyatida o‘z samarasini ifodalaydi. [4].

Har bir mashg‘ulot davrida tarbiyachilar bolalarning ijodiy faoliyatini amalga oshirishlariga,jamoaviy sahnalaشتirilgan o‘yinlar, qo‘g‘irchoq teatri va badiiy-musiqaviy kompozitsiyalar yaratishlariga harakat qilishlari lozim. Biroq shuni inobatga olish zarurki, har qanday integratsiya ta’lim jarayonida o‘quv dasturi mazmunini to‘liq qamrab olmasligi mumkin, lekin bolalardagi bilimlarni birlashtirib, uyg‘unlashtiradi. Demak, bolalar yangi bilim va tushunchalarni egallahshlari mumkin, ulardagi mavjud bilim va tasavvurlar tizimli ravishda boyitiladi va kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”.Lex.UZonline.
- 2.Xalq ta’limi tizmida pedagog xodimlar kompetensiyasini takomillashtirish: muammolar va ularning yechimlari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Samarqand, 2018.-81-84 b
3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. T: 2018.
4. Berulava M.N. Integratsiya soderjaniya obrazovaniya.-M.: Pedagogika, 1993.-172 b

“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

108.	<i>Oripova Marjona Salimovna</i> ADABIYOT DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASHNING AHAMIYATI	452
109.	<i>Ilesova Lazzat Asan qizi, Yunusova Mohichehra</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA O'QUV-TARBIYVIY FAOLIYATNI INTEGRATSIYASINING O'ZIGA XOSLIGI	454
110.	<i>Abdulazizova Gulsanam Baxtiyor qizi</i> ABDULLA AVLONIY LIRIKASIDA ILM-MA'RIFAT MASALASI	457
111.	<i>Rasulova Shahrizoda Behzod qizi</i> RAQAMLASHTIRILGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR	460
112.	<i>Xolmurodova Marjona Dadaxon qizi</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI	464
113.	<i>Abdumannanova Dilshoda Abdurauf qizi</i> TERRORIZM VA EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHDA XALQARO HUQUQIY MEXANIZMLAR	467
114.	<i>Ilesova Lazzat Asan qizi, Rasulova Saidabonu</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA INTEGRAL O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH INNOVATSION TEKNOLOGIYA SIFATIDA	471
115.	<i>Tursunov Jasurbek</i> BUYUK IPAK YO`LINING MARKAZIY OSIYODAN O`TGAN KARVON YO`LLARIDAGI SAVDO MARKAZLARI	475
116.	<i>Toshmatova Hulkar Shokir qizi</i> THOMAS HARDY'S STORIES AND THEIR PLACE IN VICTORIAN LITERATURE	479
117.	<i>Maxmanova Sevinch Farxod qizi</i> TARIXIY VA TARIXIY QADRIYATLAR TARG'IBOTI: RAQAMLASHTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI	482
118.	<i>Sultonova Madina Sultanovna</i> UCHINCHI RENESSANS VA INSON KAPITALI: O'ZARO ALOQADORLIK DIALEKTIKASI	486
119.	<i>Abduvaliyeva Nilufar Abdurasul qizi</i> HUQUQIY TA'LIMDA IQTIDORLI TALABALAR ISHTIROKINI FAOLLASHTIRISH: MILLIY TAJRIBA VA XALQARO METODIK YONDASHUVLAR	489
120.	<i>3.A. Турлибаева, X.A. Муминов</i> РАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ПРИЗНАКОВ ТРАДИЦИОННЫХ И СОВРЕМЕННЫХ СОРТОВ ЛЬНА (LINUM USITATISSIMUM L.)	492
121.	<i>Sobirova Zebo</i> DAVYDOV-CHABAN MODEL WITH DAVIDSON POTENTIAL	498
122.	<i>Begimqulova Mehriniso Odil qizi</i> MAMLAKATIMIZ OILA QONUNCHILIGIDAGI AYRIM ISLOHOTLAR	502